

XALQ OG‘ZAKI IJODIDA ERTAK JANRINI O‘RGANISHNING LINGVOMADANIY ASOSLARI

Usmanova Guzal Tulkunovna

I. Karimov Nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti

Amaliy Ingliz Tili Kafedrası Katta O‘qituvchisi

Og‘zaki so‘z san‘ati “folklor” yoki “xalq og‘zaki poetik ijodi” atamaları bilan ifodalanadi. Folklor atamasi birinchi marta XIX asr tadqiqotchisi V.Toms tomonidan 1846 yilda qo‘llangan: “*folk*” – xalq, “*lore*” – bilim, donolik, donishmandlik, ya‘ni “*xalq donishmandligi*” degan ma‘noni anglatadi. Folklor termini turli mamlakatlarda turli ma‘noda qo‘llanadi. Masalan, Angliya va AQShda xalq badiiy faoliyatining barcha turi “poetik ijod”, ya‘ni musiqa, raqs, teatr, tasviriy va amaliy san‘at, shuningdek irim-sirim, ishonch-e‘tiqod va urf-odatlar shu termin bilan ataladi. Folklor deganda asosan xalq og‘zaki ijodi tushuniladi. Folklorda so‘z, kuy va ijro birligi doimo saqlanadi. Xalq og‘zaki ijodi uzoq davrlardan beri tarixning yo‘ldoshi, uning chinakam aks-sadosi bo‘lib kelgan, u tarixiy voqealarni xalq ommasining tushunchasi nuqtai nazaridan kelib chiqib, badiiy formalarda baholanadi. Xalq og‘zaki ijodini o‘rganuvchi fan “folklorshunoslik” deb yuritiladi. Bundan tashqari folklor asarlari bilan bir qancha fanlar shug‘ullanadi¹. Tarixchilar tarixiy voqealarning xalq og‘zaki ijodida qanday aks etganini o‘rganadi. Etnograflarni xalqning urf-odatlari qiziqтира, san‘atshunoslar esa folklordagi musiqa, raqs, o‘yin va boshqalarni o‘rganadilar. Tilshunoslar xalq og‘zaki ijodi tilining lahja va shevalari bilan, adabiyotshunoslar folklor asarlarining yozma adabiyot bilan munosabatlarini tekshiradi. Folklor asarlari xalq hayotini aks ettiradi, xalqning olam haqidagi tushunchalarini uning didi, zavqini, ijtimoiy, tarixiy, siyosiy, falsafiy va badiiy estetik qarashlarni o‘zida mujassamlashtiradi². Folklor hamma zamonlarda ham ijod sarchashmasi hisoblanib keladi. Zero, insoniyat ilk ibtidoiy jamoa tuzumi davridan boshlab alla, qo‘shiq, afsona, ertak va dostonlarda o‘zining yuksak orzu-umidlari, zavq-shavqi-yu, kurashlarini ifodalagan. Xalq og‘zaki ijodi o‘zining tematik rang-barangligi, yuksak optimistik g‘oyalar bilan yo‘g‘rilganligi, xalq turmushi, urinishi, mehnati yuksak ideallarga maskanligi, xullas, xalq hayotining barcha tomonlari bilan uzviy bog‘liqligi bilan ham g‘oyatda e‘tiborlidir³.

¹ Сафаров О. Фольклор – бебаҳо хазина. Сайланма. – Тошкент: “Мухаррир”. 2010. – Б. 360

² Азадовский М.К. Статьи о литературе и фольклоре. – Москва: Гослитиздат, 1960. – С. 547.

³ Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва, 1947. – С. 518.



Xalq ertakning yaratuvchisi bo‘lib, syujetlar uchun real hayotdan lahzalarni tanlaydi va ularni xayoliy olamida o‘zgartiradi. Ertak syujetini rivojlantirish uchun odamlarning kundalik hayotiga oid barcha elementlar ham zarur emas. Masalan, o‘gay ona o‘gay qiziga zulm o‘tkazadigan oila ertak syujeti uchun maqbul hisoblanishi mumkin, bu holat ertakning va folklorning barcha janrlari uchun odatiy bo‘lgan badiiy vosita – mubolag‘a va shakllantirish bilan bog‘liq holat sifatida qabul qilinadi. Ertakda kundalik etnografik elementlar afsonaviy etnografik borliqni yaratish uchun “qurilish materiallari” vazifasini bajaradi: *chol* va *kampir*, *o‘rmondagi uycha*, *ochil dasturxon*, *suv parisining ro‘moli*, *uchar gilam*, *mehnatkash qiz*, *kenja botir* va boshqalar.

Ertaklar xalqning ijodkor vakillari tomonidan hayotiy, maishiy, sarguzasht ba‘zan ijtimoiy voqealarni to‘qib qiziqarli tarzda bayon etilishi natijasida vujudga kelgan. Ularda xalqning tarixi, dunyoqarashi, intilishi, ozodlik uchun kurashi, falsafasi aks etadi. Qadimgi zamonlardan og‘izdan-og‘izga o‘tib kelayotgan ertaklar zamonning o‘zgarishi natijasida ro‘y bergan yangiliklarni xam o‘ziga singdirib boradi. Xalq og‘zaki ijodini o‘rganuvchi olimlarning takidlashlaricha, dunyodagi hamma xalqlar og‘zaki ijodida bir-biriga yaqin turgan janr ertakdir. Sehrli ertaklarning yaratilish asoslarida o‘xshashlik yana ham kuchliroq seziladi. Ertaklarning bu xususiyati ham ularning juda qadimdan yaratilganidan, turli xalqlar maishiy hayotida o‘xshashliklarning ko‘pligidan darak beradi. Ammo bu degan so‘z ertaklarda milliylik aks etmaydi, degan xulosaga olib kelmaydi. Chunki ertaklar matnidagi qahramonlar ismlarida, muammolarida, maishiy masalalarning ifodasida, tabiat tasvirida, voqealar bayonida, hunarlarda milliy til, milliy ruh alohida aks etadi. Xalq ertaklarining ommaviyligi va yashovchiligini ham ularning shu xususiyatlari bilan izohlash mumkin⁴.

Har bir davr o‘ziga xos ertaklarni yaratdi. Inson munosabatlarining barcha xilma-xilligi ularda muhrlangan. Aynan xalq rivoyatlarida kulgu va ko‘z yoshlar, quvonch va azob-uqubatlar, sevgi va g‘azab, haqiqat va yolg‘on, iymon va iymonsizlik, mehnatsevarlik va dangasalik, halollik va yolg‘on bizgacha yetib kelgan. Mashhur rus shoirlari va yozuvchilari xalq ertaklaridan ilhom olishgan. A.S. Pushkin, ularning har biri haqiqiy she‘r ekanligini aytadi, V.G. Belinskiy esa ularni qimmatbaho tarixiy hujjatlar deb atash orqali ularning ijtimoiy ahamiyatini ta’kidlagan. A.M. Gorkiy rus ertagining “oldinga qarash” qobiliyati kabi muhim xususiyati haqida yozgan⁵.

⁴ Мирзаева С. Ўзбек реалистик адабиётида фольклор аңғаналари. – Тошкент: “Истиқлол”, 2005. – Б. 83

⁵ Аникин. В. П. Русское устное народное творчество. – Москва, 2001. – С. 447



Ertak syujetlarini o'rganish qiyosiy adabiyotshunoslikning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi: A.N.Veselovskiy o'zining "Syujetlar poetikasi" nomli asaridayoq bu mavzuga murojaat qilgan⁶. Rus xalq ertaklarining ilk tadqiqotchisi I.A.Xudiyakov hisoblanadi, u barcha ertaklarni xalqning o'z og'zidan bevosita eshitib, yozib olgan va "Buyuk rus ertaklari" to'plamida jamlagan⁷. Rus tarixchisi, adabiyotshunosi va folklorshunosi A.N. Afanasev o'zi to'plagan rus xalq ertaklarini nashr ettirish bilangina chegaralanib qolmasdan, balki "Slavyanlarning tabiatga she'riy qarashlari" nomli fundamental asarini ham yaratdi⁸. Mashhur adabiyotshunos, folklorshunos V.Y.Proppning "Ertak morfologiyasi" va "Ertakning tarixiy ildizlari" nomli asarlari ushbu yo'nalishdagi barcha izlanishlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ertak – folklor yoki adabiyotga xos bo'lgan janrlardan biri hisoblanadi. Sehrli, qahramonlik yoki kundalik xarakterdagi epik, asosan prozaik asar bo'lib, ertaklar asosan o'zida aks ettirilayotgan voqeaning tarixiyligiga da'vo qilmaydi, shuningdek, syujetining fantastikaga asoslanganligi bilan ajralib turadi.

Xalq ertagi – yozma va og'zaki folklor san'atining epik janri: turli xalqlar folkloridagi xayoliy voqealar to'g'risida prozaik og'zaki hikoya. Matnlari badiiy adabiyotga asoslangan turli janrdagi asarlarni o'z ichiga olgan nasriy folklor.

Adabiy ertak – bu epik janr: badiiy adabiyotga asoslangan, xalq ertagi bilan chambarchas bog'liq, ammo, farqli o'laroq, ma'lum bir muallifga tegishli, nashr etilishidan oldingi og'zaki varianti mavjud bo'lmagan. Adabiy ertak yo xalq ertagiga taqlid qiladi (xalq she'riy uslubida yozilgan adabiy ertak), yoki folklor bo'lmagan syujetlar asosida didaktik asar sifatida yaratiladi. Tarixiy jihatdan folklor ertagi adabiy ertakdan oldinroq dunyoga kelgan.

Ingliz tilida ertakni ifodalash uchun "hikoya, umuman har qanday voqea" degan ma'noni anglatuvchi "*tale*" so'zi ishlatiladi, u qadimgi ingliz tilidagi "*tal*" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, – *series, calculation*, shuningdek, – *story, tale, statement, deposition, narrative, fable, accusation, action of telling* ma'nolarini beradi. Longman nashriyoti lug'atida *tale* so'ziga "kimningdir boshidan kechirgan hayajonli voqealar haqida hikoya" sifatida ta'rif beriladi – *a story about exciting imaginary events... that happened to someone....* "Fairy-tale – tale about fairies (fairy small imaginary being with supernatural powers, able to help or harm human beings).

⁶ Веселовский А. Н. Три главы из исторической поэтики // Историческая поэтика. – Ленинград, 1940. – С. 317

⁷ Худяков. И.А. Великорусские сказки. Великорусские загадки Текст. СПб: Тропа Троянова, 2001. – С. 413

⁸ Афанасьев А. Н. Народные русские сказки в трех томах. – Москва, 1957. – С. 127



Shuningdek, ertak asarlarini ifodalash uchun ko‘pincha *story*, *legend* so‘zlari ham ishlatiladi. TAITK bergan ta‘rifga ko‘ra (Corpus of Historical American English), ushbu so‘z orqali yasalgan birikmalar juda o‘zgaruvchan, mashhurligi esa barqaror ravishda oshib bordi. Ot so‘z turkumiga mansub – *legend* so‘zi bilan birgalikda ishlatiladigan barcha sifatlar avvalo jozibali, ko‘ngil ochadigan va romantik, shundan so‘nggina yozib olingan, tarixiy yoki qadimiy narsalarning manzarasini jonlantiradi: *Sonnets, stanzas of Tennysonian sweetness, tales imbued with German mysticism, versions from Jean Paul, criticisms of the old English poets, and essays smacking of Dualistic philosophy, were among his multifarious productions.*

Ertak atamasi M.Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asarida “yetuk” tarzida qo‘llanilgan. Xalqimiz orasida hozirgi paytda xam *cho‘pchak, utuk, matal, varsqa* kabi so‘zlar ertak manosini anglatadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ertak so‘ziga quyidagicha ta‘rif berilgan:

1. Xalq og‘zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to‘qima va uydirmaga asoslangan, sehrli–sarguzasht va maishiy mazmundagi epik badiiy asar; *cho‘pchak. Ertak aytmoq. Bir ariqda sut, ikkinchi ariqda sharbat – ertaklarda bo‘ladi! S. Anorboev, Oqsoy. Ilmiy fantastik asarlar bilan adabiy ertaklar o‘zaro yaqin aloqadadir. “Fan va turmush”.*

2. Hikoya, qissa, voqea. *Unsin hamma voqeani – akasi bilan Gulnorning sevgi ertagini kampiridan to‘la eshitdi. Oybek, TTT. Yolg‘iz Tiktepa qishlog‘i–dagina emas, tevarak qishloqlarda ham mulla Obidning ertagi, ekindagi muvaffaqiyati og‘izdan og‘izga yurib ketdi. A. Qodiriy, Obid ketmon.*

Faylasuf I.A.Ilin ta‘biri bilan aytganda, “ertak – bu odamlarning eng birinchi, din paydo bo‘lgunga qadar mavjud bo‘lgan ilk falsafasi, ularning erkin afsonaviy obrazlar orqali va badiiy shaklda bayon qilingan hayot falsafasidir”. Unda olam manzarasining eng arxaiik tasvirlari aks ettirilgan, mifologiya va qahramonlik eposi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan mifologiyaning asoratlari aynan ertak tarkibida keltirilgan. Natijada, ertaklar, hatto keyingi o‘zgarishlarga qaramay, zamon va makon, qahramon va uni o‘rab turgan atrof–muhit haqidagi arxaiik tasavvurlarning manbai hisoblanadi. Ular badiiy makonni ahamiyat mezoniga ko‘ra tashkil etadigan shaxsning konseptual tizimini o‘rganish uchun material bo‘lib xizmat qiladi.

References

- 1.Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – Москва,1993. – С. 37.
- 2.Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. – Москва: Прогресс,



1984. – С. 247.

З.Кубрякова Е. С. Язык и Знание: На пути получения знаний в языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – С. 9; Попова З. Д., Стернин И. А.

